

## **Biznes-rejaga muvofiq 2022-yilda rivojlanishning asosiy yo'nalishlari (Bank Kengashi tomonidan 2021-yil 29-noyabrda tasdiqlangan)**

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki respublikaning rivojlangan banklaridan biri sifatida bank xizmatlari va moliya bozorida o‘z mavqeini mustahkamlash uchun mutlaq va nisbiy moliyaviy ko‘rsatkichlarini yetarli darajaga ko‘tarilishini taminlash niyatida.

### **Strategik rivojlanishning maqsadlari:**

- daromadni oshirish va xarajatlarni kamaytirish orqali faoliyat samaradorligini oshirgan holda foydani ko‘paytirish;
- bankning kapitallashuv darajasini oshirish, kapitalining yetarliligi, likvidliligi va barqarorligini moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini xalqaro bankchilik tamoyillari talablari doirasida mustahkamlash;
- faoliyatning barcha sohalarida yuridik va jismoniy shaxslarning mijozlar bazasini sifat va miqdor jihatidan kengaytirish, yirik omonatchilarga bog‘lanib qolish xavfini pasaytirish;
- Uzoq muddatli resurs bazasini oshirish, yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘larini faol jalb qilish;
- aktivlar sifatini yaxshilash, qisqa muddatli kreditlar berish amaliyotini kengaytirish, muammoli kreditlarning so‘ndirilishi bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, asosiy qarz va foizlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorliklarning kelgusida yuzaga kelmasligining oldini olish choralarini ko‘rish;
- Kredit berish jarayonini soddalashtirish, qarz oluvchilarining to‘lov qobiliyatini tahlil qilish va baxolashni optimallashtirish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish;
- masofaviy bank xizmatlari soni va qamrovini ko‘paytirish, shu jumladan kontaksiz to‘lovlar, avtomatlashtirilgan tizimining keng qo‘llanilishi, raqamli identifikasiya va kredit konveyeri, bank sohasida yangi konsepsiylar va texnologiyalarni joriy etish (marketpleys, ovozli texnologiyalar)
- Bank tavakkalchiliklarini boshqarish tizimini rivojlantirish, Bank Kengashi huzuridagi xatarlarni nazorat qilish qo‘mitasi ishini kuchaytirish, bank tavakkalchiliklarini boshqarish departamentining mustaqilligini taminlash, rivojlanishning turli ssenariylaridan foydalangan holda stress-test rolini oshirish, kredit byurolari bilan ishlashni optimallashtirish;
- Xorijiy kredit liniyalarini o‘zlashtirish va joriy Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi (Saudiya Arabiston), Savdoni moliyalashtirish Islom korporatsiyasi (Saudiya Arabiston), «Raiffeisen Bank International» (Avstriya), va Xalqaro Iqtisodiy Hamkorlik Banki (XIHB, Rossiya) kredit liniyalari bo‘yicha mavjud loyihalarni monitoringini olib borish;
- transchegaraviy pul o‘tkazmalarini joriy qilish;
- filiallar va bank xizmatlari markazlarining mintaqaviy tarmog‘ini rivojlantirish, yangi filiallarni ochish;
- Xalqaro standartlar asosida korporativ boshqaruv tartibini ishlab chiqish;

- 9-sonli Xalqaro moliyaviy hisobot standartiga muvofiq moliyaviy aktivlarni tasniflash va baholashga qo'yiladigan yangi talablarni hisobga olgan holda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash sifatini yaxshilash;
- ISO 9001: 2015 sifat menejmenti tizimining muvofiq standartlariga rioya qilish, shuningdek ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi kurash standartlariga ham;
- Xodimlar bilan ishlash usullarini takomillashtirish, xodimlar va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, «O'quv markazi» ning samarali ishlashini taminlash;
- bank xodimlari va tarkibiy bo'linmalari uchun (KPI) asosiy ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va joriy etish.

<b>ХАБ “Трастбанк”нинг 2022 йил Бизнес режа бажарилиши хақида маълумот</b>				
Бизнес режанинг асосий кўрсаткичлари	Режа (млн.сўм)	Амалда (млн.сўм)	Фарқ (млн.сўм)	Режа бажарилиши (%)
Активлар		8 231 824		
Кредит портфели		3 495 792		
Жалб қилинган депозитлар		6 293 370		
Даромад	1 528 275	1 790 649	262 374	117%
Харажат	928 230	1 185 314	257 083	128%
Фойда	600 045	605 335	5 291	101%

**O'zbekiston Respublikasining 31 ta bankining 2020 yil yakuni bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha "Trastbank" XAB:**

O'z kapitalining rentabelligi (ROE) bo'yicha 4-o'rin;

Aktivlar rentabelligi (ROA) bo'yicha 3-o'rin;

O'zbekistondagi barcha banklar orasida sof foyda bo'yicha 5-o'rin;

O'zbekiston banklari orasida aktivlari bo'yicha 16-o'rin;

**Reytinglar:**

1. «S&P Global Ratings» "Trastbank" xususiy aksiyadorlik bankiga "Barqaror" prognozi bilan "B+" darajasida tasdiqladi.
2. «Fitch Ratings» "Trastbank" xususiy aksiyadorlik bankiga (EDR) "Barqaror" prognozi bilan "B" darajasida qayta tasdiqladi.
3. «Axbor» reyting» reyting agentligi "ijobiy" prognozi UzA+ darajasida qayta tasdiqladi.